Ege Üniversitesi Yayınları
Edebiyat Fakültesi Yayın No: 227

Türk Dünyası Modernleşmesi:

Türk Dünyası *Roman* ve *Hikâye* Sempozyumu

-Bildiri Kitabı-



Türkiye Cumhuriyeti'nin 100. Yılı Şerefine ve İsmail Gaspıralı Anısına

Editör
Yılmaz ÖZKAYA

Bornova - 2023

TÜRK DÜNYASI MODERNLEŞMESİ I:
TÜRK DÜNYASI ROMAN VE HİKÂYE SEMPOZYUMU

BİLDİRİ KİTABI

Editör
Doç. Dr. Yılmaz ÖZKAYA

E-ISBN: 978-605-338-442-7

Ege Üniversitesi Üst Yayın Komisyonu'nun 21.12.2023 tarih ve 06/04 sayılı kararı ile basılmıştır.
Eserin bilim, dil ve her türlü sorumluluğu yazarına/editörüne aittir.
© Bu kitabın tüm yayın hakları Ege Üniversitesi'ne aittir. Kitabın tamamı ya da hiçbir bölümü yazarının önceden yazılı izni olmadan elektronik, optik, mekanik ya da diğer yollarla kaydedilemez, basılamaz, çoğaltılamaz. Ancak kaynak olarak gösterilebilir.

T.C. Kültür ve Turizm Bakanlığı Sertifika No: 52149

Ege Üniversitesi Yayınları

Ege Üniversitesi Basım ve Yayınevi
Bornova -İzmir
Tel: 0 232 342 12 52
E-posta: basimveyayinevisbm@mail.ege.edu.tr

Yayın Link
https://basimveyayinevi.ege.edu.tr

Aralık, 2023



Bu eser, Creative Commons Atıf 4.0 Uluslararası lisansı (CC BY-NC-ND) ile lisanslanmıştır. Bu lisansla eser alıntı yapmak koşuluyla paylaşılabilir. Ancak kopyalanamaz, dağıtılamaz, değiştirilemez ve ticari amaçla kullanılamaz.

This work is licensed under a Creative Commons Attribution 4.0 International license (CC BY-NC-ND). Under this license, the text can be shared with the condition of citation. However, it cannot be copied, distributed, modified or used for commercial purposes.

MODERN TÜRKMEN NESRİ — TÜRKMEN DİLİNİ ÖĞRENMEK İÇİN HARİKA BİR KAYNAK (AK "BEYAZ" KÖKENLİ KELİMELER)

Maral TAGANOVA 709

GASPRINSKIY ASARLARIDA RUHIY KECHINMALAR

Muqaddas TOJIBOYEVA 717

ÖZBEK ROMANCI ABDULLAH KADİRİ'NİN BİYOGRAFİSİ HAKKINDA: YARATICININ KİŞİLİĞİNE BİYOGRAFİK BİR YAKLAŞIM

Sanaber TÖLEGENOVA..... 723

O‘ZBEK-TURK ADABIY ALOQALARI GENEZISI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Tuliboyev Sarvarbek DİLMURODOVİCH..... 727

ABDÜLHAMİD SÜLEYMANOĞLU ÇOLPAN’IN HİKÂYELERİNDE KADIN

Sinem KÜÇÜKAĞAOĞLU TUNÇ..... 739

TURK DUNYOSI IJTIMOIY-MADANIY JARAYONLARIDA ADABIYOTNING ZAMONAVIY MASALALARI

Kamoliddin UMAROV..... 755

MODERN AZƏRBAYCAN ROMANINDA POSTKOLONİAL NARRATİVLƏR

Maral YAQUBOVA 763

MODERN ÖZBEK HİKÂYESİNİN MÜBEŞŞİRİ BİR METİN ÜZERİNE

Veli Savaş YELOK..... 779

GABDİLHEY SABİTOV’UN HİKÂYELERİNDE TABİAT

Gülşah YILMAZ..... 789

ABDULHAMİD SULAYMON CHO‘LPONNİNG “KECHA VA KUNDUZ” ROMANİDA “ESKİ” VA “YANGİ” MUNOZARASİ

Ma’rufjon YO‘LDOSHEV

Zuhra YO‘LDOSHEVA 801

O‘ZBEK-TURK ADABIY ALOQALARI GENEZISI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Tuliboyev Sarvarbek DİLMURODOVİCH[1]

KIRISH

Dunyodagi barcha millat va elatlarning o‘zaro aloqalari insoniyatning o‘zi kabi qadimiydir. Moziyga nazar tashlar ekansiz, tarix sahnasida paydo bo‘lgan xalq borki hududiy va ma’naviy o‘zaro yaqin bo‘lgan elatlar bilan turli jabhada aloqa o‘rnatganligini ko‘ramiz.

Ayni damda o‘ziga xos taraqqiyot jarayonidagi xalqlarning ozodlikka yo‘naltirilgan maqsad, intilishlarida ham xuddi shunday chambarchas bog‘liqliklarni his etishimiz mumkin. Bu ayniqsa, dini, tili, urf-odatlari, dunyoqarashi yaqin millatlarda yanada kuchliroq seziladi. Xalqaro aloqaning behad jozibador shakllaridan biri bo‘lgan o‘zaro adabiy aloqalar misolida ham o‘zgacha go‘zallik va nafosatni ko‘rishimiz mumkin. Chunki, bir oilaga mansub turkiy xalqlarning so‘z san’ati sarchashmalari yagonaligi va birligi bilan xarakterlanadi. Hatto turli ijtimoiy o‘zgarishlar, siyosiy ziddiyatlar davrlarida ham mushtarak adabiy an’analar o‘z mohiyatini yo‘qotmagan. Tabiiyki, bu ezgu hol xalqlarning iymon-e’tiqod yo‘sini, turmush-muhit tarzi hamohangligi bilan izohlanadi. Aytish mumkinki, taraqqiyotning shunday ajib qonuniyati sababli uzoq moziydan o‘tib kelgan “Kul Tegin”, “To‘nyuquq”, “Bilga xoqon” bitiklari, badiiy namunalar umumturkiy obidalar, barcha turkiy millatga xos bebaho meros sanaladi. Mana shunday tarixiy jarayon sababli bugungi turkiy millatlar o‘tmishdagi o‘nlab allomalari ijodlaridan birdek iftixor hissini tuyadilar.

1.Adabiy aloqalar tarixi.

Tarixdan ma’lumki, Turkiya XIV-XV asrlarda jahonning ilg‘or madaniy mamlakatlaridan biri edi. Sulton Boyazid II temuriyzodalar bilan do‘stona munosabat o‘rnatib, ikki mamlakat o‘rtasida faqat savdo

[1] O‘zbekiston, Surxondaryo, Termiz davlat universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi
tuliboyevsarvar39@gmail.com

emas, ayni paytda madaniy aloqalarning ham ravnaq topishiga keng imkoniyatlar yaratdi. Mirzo Ulug‘bek vafotidan keyin talaygina samarqandlik ilm va madaniyat ahlining turkiyaga borib qolishi tasodifiy emas. Ali Qushchining Turkiyadagi faoliyati tufayli Mirzo Ulug‘bek o‘sha davrdayoq Yevropaga tanildi. Ulug‘bek astronomiya maktabining buyuk namoyondasi Qozizodaning nabirasi Miram Chalabiyning “Dastur ul-amal tasxih al-jadval” (“Ulug‘bek jadvaliga sharhlar”) asarining Boyazid II iltimosiga ko‘ra yozilishi esa turk sultonining o‘zbek ilm-fani va madaniyatiga katta hurmat-e’tibor bilan qaraganidan dalolatdir. [1,6]

Ma’lum bo‘lishicha Sulton Boyazid II davr taqozosi bilan o‘z yurtiga sig‘magan o‘zbek olimlari va hunarmandlarini Turkiyaga taklif etibgina qolmay, Sulton Husayin Boyqaro va Alisher Navoiy bilan ham yaqin aloqada bo‘lgan. Xususan, Alisher Navoiy unga o‘z g‘azallarini yuborib turgan. Boyazid II esa, o‘z navbatida, bu g‘azallarni Ahmad Posho ismli eng mashhur turk shoiriga nazira bog‘lash uchun bergan.

Shu o‘rinda Ahmad Posho haqida bir-ikki so‘z:

XV asr turk adabiyotining eng yorqin yulduzlaridan bo‘lgan shoir Ahmad Posho (Ahmed Paşa), o‘sha vaqtda Usmonlilarning poytaxti bo‘lgan Edirna shahrida tug‘ildi. Uning otasi Valiyuddin Ilyos Murod II ning qoziaskari, ya’ni bosh harbiy qozisi edi. O‘z davrida yaxshi ma’lumot olgan Ahmad Posho faoliyatini Bursadagi Murodiya madrasasida mudarrislikdan boshladi. Tez orada Edirna qozisi bo‘ldi. 1451 yil taxtga o‘tirgan Fotih Sulton Mehmet nazariga tushgan Ahmad Posho qoziaskar, shahzodalar otabegi va vazir lavozimigacha ko‘tarildi. Vazir Ahmad Posho ko‘plab shoirlarga valine’matlik qiladi, ustozi Malihiyni sultonga tanishtirib, hurmatini bajo keltiradi. Sulton undan askarlar ma’naviyatini yuksaltirishda ham foydalanadi. Manbalarda qayd etilishicha, u o‘zining nafosatliligi va sinchkovligi tufayli qo‘shinda “sipohi muftiy” nomi bilan tanilgan.[2,111] Ammo saroydagi kurashlar shoir Ahmadiyni ham chetlab o‘tmaydi. Shoirning “axloqsiz”ligi haqida podshoga chaquv bo‘ladi va Ahmad Posho zindonga tashlanadi.

Ahmad Posho Turkiyada sharq madaniyatining mumtoz siymolardan biri sifatida hanuzgacha qadrlanib kelinadi. Navoiyga qadar bo‘lgan turkiy adabiyoti fors she’riyatining kuchli ta’siri ostida rivojlandi. Boyazid II ning fikriga ko‘ra, Navoiy she’riyati an’analarining turk adabiyotiga kirib kelishi, bir tomondan turk shoirlarning mahoratlari

oshishiga, ikkinchi tomondan esa, mumtoz fors shoirlari ta’siridan xalos bo‘lishiga yordam berishi mumkin edi. Shuning uchun ham Navoiyning 33 ta g‘azalini Ahmad Poshoga berib, bu g‘azallarga tatabbu yozishni buyuradi.

Manbalarda aytilishicha Alisher Navoiyning 33 g‘azali Turkiyaga 1480- 1481- yillari yetib boradi. Bu g‘azallarning Sulton Boyazid II ga Navoiyning shaxsan o‘zi tomonidan yuborilganligi, ayniqsa, muhimdir. Agar Sulton Boyazid II ning bu g‘azallariga tatabbu bog‘lash haqida Ahmad Poshoga buyruq bergani, Ahmad Poshoning esa g‘azallar buyuk shoirning emas, balki, Husayn Boyqaro vazirining asarlari bo‘lgani uchun ularga tatabbu bog‘lashga kirishganini e’tiborga olsak, Navoiy bilan Boyazid II o‘rtasidagi munosabatlar, avvalo ikki davlat arbobi o‘rtasidagi munosabatlar sifatida gavdalanadi. Shuni taxmin qilish mumkinki, 1472-yilda Husayn Boyqaro saroyining bosh vaziri etib tayinlangan va “amiri kabir” unvoniga muyassar bo‘lgan Navoiy 1480-1481- yillarga qadar ham Boyazid II ga bosh vazir sifatida xat yozib turgan va Navoiy bilan Boyazid II o‘rtasida rasmiy, ayni paytda, do‘stona aloqa bo‘lgan. Agar ular o‘rtasidagi aloqa faqat rasmiy bo‘lganida Navoiy turk sultoniga hech qachon eng yaxshi 33 g‘azalini tuhfa sifatida yubormagan bo‘lardi.[1,6]

Muhim jihati shundaki, Ahmad Posho o’z tatabbularini usmonli tilida yozgani uchun taqlid deb hisoblamagan. Navoiyning qaysi g‘azaliga tatabbu bog‘lagan bo‘lsa, shu g‘azalning ta’sir doirasidan biroz bo‘lsa-da chiqishga uringan. Agar Navoiy muhabbat taronalarini kuylashda ko‘proq quyosh obrazidan foydalangan bo‘lsa, Ahmad Posho oy obraziga murojaat etgan. Agar Navoiyning lirik qahramoni serviqor bo‘lsa, Ahmad Poshoning lirik qahramonida hazil-mutoyibaga moyillik ustuvor.

Shoir o‘zining Fotih Mehmet zamonidagi kunlarini eslab, o‘zini Alisher Navoiyga, Fotih Mehmetni Husayn Boyqaroga qiyoslashga ishora bor.

Ahmad Posho g‘azallarida muhabbat – bosh mavzu. Shoir o‘zini “muhabbat kuychisi” ekanligini aytadi. Sevgi jamiki shodliklarning, ayni paytda g‘am-anduhning sababchisidir, u oshiq-ma’shuq munosabatlarini tasvirlar ekan, tabiat ko‘rinishlaridan ustalik bilan foydalanadi:

Har kiminkim hamdami gul yuzli bir jonon o‘lur,
Xonasi jannat kibi doim bahoriston o‘lur,
Oshig‘u ma’shuqqa o‘xshar oftob ila zamin
Kim biri yig‘laguncha birisi xandon o‘lur. [3,66]

Ahmad Posho Navoiy g‘azallariga tatabbu bog‘lash jarayonida shoir sifatida bir pog‘ona yuqori ko‘tarilgan va o‘z ijodining gultoji bo‘lgan asarlarini yaratganki, bu asarlar turk mumtoz lirikasining oltin xazinasidan joy olgan.

Bir so‘z bilan aytganda Ahmad Posho Navoiyning ijod gulshanida mavjud bo‘lgan xushboy tarovatni, badiiy nafosat chechaklarini turk she’riyatiga olib kirdi. Uning Navoiy lirikasida bahramand bo‘lishi turk she’riyati ufqlarining kengayishi, tili va uslubining yanada milliylashishi, go‘zallashishi va saqlanishiga imkoniyat yaratdi. Binobarin Navoiy tufayli o‘zbek-turk adabiy aloqalarining muhim bir tarixiy davri boshlandi, qolaversa, turk she’riyati taraqqiyoti tarixida har jabhada yangiliklar yuzaga kela boshladi.

2.Alisher Navoiy va Usmonli she’riyati.

Ma’lumki, Navoiy yashagan davrda, O‘rta Osiyoda ikki xil adabiy til mavjud edi: fors va turk. Navoiy yashagan XV asr boshida fors tili she’riy til sifatida yuksak cho‘qqiga chiqdi. Chunki Attor, Sa’diy, Dehlaviy, Hofiz kabi buyuk zotlar, shoirlar tufayli forsiy she’riyat butun Sharqqa, qolaversa, arablarga qadar yoyildi. Turklar esa o‘z tillarida she’r yozish o‘rniga fors tilini she’r tili sifatida qo‘llaganlar.

Chig‘atoy turklarida Navoiygacha bo‘lgan davrda Sakkokiy va Lutfiy kabi zabardast shoirlar ijod qilgan. Navoiyning o‘zi ta’kidlaganidek, bu davrda turk tili “she’r tili” emas edi, uni qayta ishlash, she’r tiliga olib kirish kerak edi. Navoiy o‘sha davr turkiy shoirlari kabi fors tilida she’r yozishni davom ettirib, she’r yozishga kirishmadi, aksincha, u hali tayyor bo‘lmagan turk tilini sayqallab, ijod tili sifatida maydonga olib chiqdi. Bu tilda ham juda chiroyli ash’orlar yozish mumkinligini yozgan she’rlari bilan isbotladi. Shuning uchun ham ko‘p shoirlar, xususan, Abdurahmon Jomiy Navoiyning turkchaga yozilgan dastlabki ijod namunalarini kuzatib borgan va Navoiyning xizmatlari beqiyosligini, g‘azallarining go‘zalligini, o‘zining turkiy she’rlarida alohida ta’kidlashgan. [4, 165-167]

XVI asrning ko‘zga ko‘ringan ulug‘ shoirlaridan biri Muhibbiy ham Alisher Navoiy ijodiga katta qiziqish bilan qaragan. Muhibbiy turkiy va fors she’riyatiga qiziqib, ularni arab tiliga tarjima qilgan. Muhibbiyni o‘z davrida shoirlar sultoni deb e’tirof etishgan. Usmonli she’riyati tarixida eng ko‘p g‘azal yozgan shoirlardan biri sifatida nom qozongan Muhibiy Navoiyning ko‘plab g‘azallariga nazira bog‘lagan. Masalan, Alisher Navoiyning “Favoyid ul-kibar” devonidagi “Ko‘ngul” radifli g‘azalini misol qilishimiz mumkin:

Navoiy:

Nolani har nechakim eldin nihon aylar ko‘ngul,

Seni sog‘ing‘ach yana bexud fig‘on aylar ko‘ngul. [5,268]

Buhibbiyning javobini ko’rib chiqamiz:

Derd-i hicrini şeha gerçi nihan eyler gönül

İlle vaslun anıcak vay ki fig’an eyler gönül.[6, 122]

Ko‘rinib turibdiki, bu matla juftliklari orasidagi dialekt farqlarini hisobga olmasak, unchalik katta farq yo'q. Navoiy sevgilisi uchun nola qilishni iloji boricha yashirishga harakat qildi, lekin uni o‘ylab ko‘rishni istamadi. U yorga murojaat qilayotganini aytadi. Muhibbiy ham xuddi shu xayoliy siymosini bir necha so‘z bilan ifodalagan. U “Nola” o‘rniga “derd-i hijron”ni ishlatadi, U “seni sog‘ingach” o‘rniga “vaslun acak”ni (doimi yodda tutish)ni afzal ko‘radi. Bundan tashqari, ko‘rinib turibdiki, qofiya so‘zlari ham deyarli farq qilmaydi.

Bu holatni Alisher Navoiyning “Badoye ul-vasat” devonidagi g‘azallarida ham ko‘rishimiz mumkin:

Ey, yuzung gulbargiga oshuftavu hayron sabo,

Telbalardek gulshani ko‘yungda sargardon sabo. [7, 31]

Muhibiyning javobi:

Gül yüzine olalı aşufta vü hayran saba

San yürir divanedür gülşende sergerdôn saba

Bu baytda Navoiy shunday deydi: “Tong shamoli atirgul barglaridek mahbuba yuziga qoyil qoladi. Xuddi, telbadek atirgul bog‘ida sarsonu-sargardon.

Muhibiy ham xuddi shunday tasvir usulini qo‘llaydi. Faqat Muhibbiy ikkita o‘zgarish qiladi. “*gulbarg”* o‘rniga “*gul yuz*” ni,

“telba” o‘rniga “devona” so‘zini qo‘llaydi.

Endi Navoiyning “Navodir ush-shabob” devonidan o‘rin olgan “Koshki” radifli g‘azalga ham Muhibbiy tomonidan tatabbu bog‘lanadi:

Ochmag‘ay erding jamoli olam oro koshki,

Solmag‘ay erding bori olamda g‘avg‘o koshki. [8, 453-454]

Bu g‘azalga Muhibbiyning javobi:

Kılmasam cana cemaliün ben temenna kaşkı

Salmasam dil mülkine her lahza gavga kaşkı. [6, 122]

Atoqli olim Najmiddin Komilovning fikricha, Alisher Navoiyning “Koshki” radifli g‘azaliga Abdurahmon Jomiy ham fikr bildirib, ushbu g‘azalga tatabbu’ bog‘lagan. [9, 6]

Alisher Navoiyning o‘zi Jomiyga bag‘ishlagan «Xamsat ul-mutahayyirin» asarida buni faxr bilan qayd etadi. Ushbu asarda shunga o‘xshash yana bir muhim ma’lumot keltirilgan. Navoiy yozadi: *«Bir qatla bu faqirning turkcha bu matlaikim:*

Ochmag‘ay erding jamoli olamoro koshki,

Solmag‘ay erding bori olamg‘a g‘avg‘o koshki —

el orasida shuhrat tutub erdi va podshoh hazratlarining (Husayn Boyqaroning) suhbatlarida dag‘i o‘qilur erdi. Shuyu’ (ovoza) va shuhrati ul yerga yettikim, hazrati Maxdumg‘a dag‘i masmu’ bo‘lub (eshitilib), alarg‘a ham dag‘dag‘a ulkim, bu bahru qofiya va radifda she’r degaylar. Bu doiya (niyat) paydo bo‘lub, chun turkcha alfoz bila nazmg‘a iltifot qilmas erdilar, bir forsiy g‘azal ayttilarkim, matlai budur:

Didame didori on dildori ra’no koshki,

Dida ravshan qardame z-on ro‘yi zebo koshki. [10, 89-90]

Demak, Abdurahmon Jomiy turkiy tilni yaxshi bilgan, bu tilda yaratilgan asarlarni o‘qib zavqlangan. Shuning uchun u Navoiyning faqat dostonlarinigina emas, balki lirik asarlarini ham mutolaa qilib, yuksak baholagan, Navoiyni ulug‘ ijodiy ishlarga ruhlantirib turgan. Navoiyning so‘zlaridan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, Jomiy ulug‘ o‘zbek shoirining forsiy she’rlariga ham, turkiy asarlariga ham javobiya aytgan, biroq turkiy she’rga turkiy tilda emas, balki forsiy tilda tatabbu’ bitgan. Bu o‘ziga xos nodir adabiy hodisa, ikki xalq hamkorligi, ruhiy yaqinligining ifodasi edi.

Biroq muhimi yana shundaki, Jomiyning tatabbu' tariqida yozgan g‘azali ham el orasida shuhrat topib, Husayn Boyqaro e'tiborini qozonadi va podshoh Navoiyga ushbu forsiy g‘azalga musaddas bog‘lashni (har bir baytni olti misralik bandga aylantirish) amr etadi. Hazrat Navoiy bu amrni bajaradilar — yana yangi bir ajoyib asar vujudga keladi. Alisher Navoiy ushbu musaddasni forsiy she'rlar to‘plami — "Devoni Foniy"ga kiritgan.

So‘zimizni yana Alisher Navoiy she'riyati ta'siridagi turk she'riyatidagi holat bilan davom ettiramiz. Ya'ni, Muhibbiyning Alisher Navoiy g‘azallariga bitgan tatabbu'lari va ularning nozik o‘ziga xosliklarini ko‘zdan kechiramiz. Masalan, Alisher Navoiyning "G‘aroyib us-sig‘ar" devonidagi

Gul uzra xatti mushkin birla to qilding raqam paydo,

Manga jon safhasida bo‘ldi yuz xatti alam paydo. [11, 49]

radifli g‘azaliga Muhibbiy yuksak did bilan yondoshib, tatabbu' bog‘laydi:

Nice yıllardur olmışdur derun-ı dilde gam peyda,

'Aceb midür bu dıdemden ola her lahza dem peyda.[6,123]

Navoiy yuqoridagi misrada sevgilisining visoliga yetishni orziqib kutgan oshiq timsolini keltirib, oshiq yuzidagi hijron azobi naqadar kuchliligidan, uning jon sahfasidagi holat bilan qarama-qarshi qo‘yadi. Muhibbiy ham Navoiyning bu misralaridan ta'sirlanib, xuddi shu radifdagi g‘azalini bitadi. Yoki, Navoiyning "G‘aroyib us-sig‘ar" devonidagi "Yo'q" radifli g‘azali:

Yordin ayru ko'ngul mulki durur sultoni yoq,

Mulkkim sultoni yo‘q, jismedururkim, joni yo‘q.

Ushbu g'azalga Muhibbiyning javob g'azali:

Her kimin kim bu cihan bağında bir cananı yok

Fi'l-hakika mürdedür cisminde anın canı yok

Ko‘rinib turibdiki, Navoiy she'rlari ko‘pgina usmonli shoirlari kabi Muhibbiy tomonidan ham o‘rganilib, uga nazira tarzida bir qancha she'rlar tartibga solingan. Hatto, ba'zi matla'lar ham o‘z holicha qolgan. Darhaqiqat, boshqa shoirlarning bayt va g‘azallarini bunday qabul qilish Sharqda ko‘chirish, o‘g‘irlik yoki tayyor oshga bakovul kabi qabul

qilingan. Lekin, shunday shoirlar borki, ularning ijodi hamma tomonidan qabul qilinadi, ularning she'rlariga tatabbu bog‘lash yoki ularga ergashish sharaf deb hisoblanadi. She'riyatning eng buyuk namoyondalari, masalan Rumiy, Hofiz, Sa'diy va boshqalarni shular sirasiga kiritsak bo‘ladi. Navoiy ham shu darjada ediki, turkiy she'riyatda unga ergashish, uning g‘azallariga tatabbu bog‘lash, muallif uchun sharaf, qolaversa buyuk yozuvchiga bo‘lgan cheksiz ehtirom natijasidir.

3.XIX asr oxiri XX asr boshlarida o‘zbek va turk adabiy aloqalari.

Birinchi o‘zbek publitsisti Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat 1891 yilda Istanbulda bo‘lgan vaqtida yangi turk adabiyoti, maorifi va matbuoti, o‘quv va o‘qituv ishlari borasida ular erishgan yutuqlar bilan tanishadi. Turkistondagi o‘z vatandoshlariga yo‘llagan bir maktubida Istanbuldagi yuqori tabaqa vakillari va tijorat ishlari bilan shug‘ullanuvchi kishilarning zamon taraqqiysini hisobga olib, o‘z farzandlarini fransuz va nemis tillarni o‘rganishga katta ahamiyat berayotganliklari va turklarning ta'lim sohasidagi bu ilg‘or tajribalaridan yurtdoshlarini ibrat olishga da'vat etadi.

1905-1917 yillar ichida yangi o‘zbek matbuoti “Oyina” jurnali, “Sadoi Turkiston” va “Sadoi Farg‘ona” kabi gazetalari va ba'zi bir adabiy to‘plam va bayozlar (masalan, 1907 yilda Xivada nashr etilgan “Bayozi majmuai ash'or”)da atoqli ozarboyjon ma'rifatparvar shoirlaridan Muhammad Hodi, tatar shoirlaridan Abdulla To‘qay asarlari bilan birga yangi turk shoirlarining original va tarjima asarlaridan namunalar, shuningdek, qo‘shni mamlakatlardagi ijtimoiy va madaniy hayotga oid maqolalar e'lon qilina boshlandi.

Adib Sadriddin Ayniy ham keyinchalik bu davrni eslab, shunday deb yozgan edi: “Rus-yapon urushi boshlandi. Bu urush sababli ora-sira kelib turgan “Tarjimon” gazetasi Buxorog‘a kelib tarqala boshladi. Hindistondan “Hablul-matin”, Misrdan “Chehranoma”, “Parvarish” degan forsiy gazetalari kelib, urush xabarlari uchun gazeta o‘qimoqchi bo‘lgan kimsalarga boshqa fikrlarni ham berdi. Lekin ahvol bunday turmadi. 1905 yildan 1908 yilga dovur sharoit ko‘p bor o‘zgardi. Ushbu ikki yil muddatida turk, tatar, Istanbul, Misr, Hindiston matbuoti

Buxoroda yaxshigina rivojlandi. [12, 72-73]

Abdulla Avloniyning “Dunyo fojiasindan” she’ri bilan Ozarboyjon shoiri Muhammad Hodining “Insonlarni tarix fojialari yoxud anvoyi intiboh”, turk shoiri Tavfiq Fikratning “Tarixi qadim” she’rlarini qiyoslash samarali bo‘lib, ularning hammasini o‘rinsiz qon to‘kish va jabr-sitam, haqsizlik, zulmga qarshi keskin norozilik va nafrat, mazlumlar holiga behad achinish va shafqat singari mushtarak insonparvarlik o‘zaro birlashtirib turadi.

Nomiq Kamolning “Usmonlilarmiz”, Muhammad Aminning “Yangi turon”, “Ey, turk uyg‘on!” kabi she’rlarida turkiy xalqlarning o‘ziga xos milliy xususiyatlari, ularning tili, tarixiy urf-odatlari, o‘zaro qon-qardoshlik aloqalari, mustamlakachilarga qarshi istiqlol uchun kurashi ifodalangani uchun ular Turkistonda keng tarqalib, ayniqsa, mahalliy shoirlar ijodida aks-sado topdi.

Tanqidchi Vadud Mahmud “Bu kungi she’rlarimiz va san’atkorlarimiz” (1925) maqolasida o‘zbek va turk adabiy aloqalari, ularning bir-birlariga o‘zaro ta’sirlari tarixi va bu munosabatlarning keyingi rivoji haqida “Bizda yangi adabiyot Turkiya adabiyoti tanqidi bilan boshlang‘ondir. Ruhda va shaklda Turkiston, Qofqozyo, Qrim doimo Turkiyaga ergashadir. Bu ham tabiiydir. Chunki, avvaldan til mushtarakdir, so‘ngra tarixiy madaniyat mushtarakdir va oqibat Ovro‘pa madaniyatiga qarshi bukungi vaziyat mushtarakdir. Navoyi asrida chig‘atoy adabiyoti kuchli bo‘lg‘onidan Turkiya adabiyoti bizning adabiyotdan kuchli mutaassir bo‘lg‘on edi. Bu kun esa g‘arb Turkiya adabiyoti biznikidan kuchli, madaniy va adabiy hayotga molik bo‘lg‘ondan biznikilar ularga ergashmakdadir” degan fikrlarni bildirib o‘tadi.

Xulosa

O‘zbek adabiyoti tarixining barcha davrlarida adabiy aloqalar maqsad va vazifalariga ko‘ra turli ko‘rinishlarda davom etib kelgan. Hozirgi paytda mazkur soha jahoniy miqyosda rivoj topib, uning yangi shakllari paydo bo‘lmoqda. Adabiy aloqalar bir yozuvchi ijodining bir yozuvchi ijodiga samarali ta’siri, ikki asar orasidagi badiiy-g‘oyaviy robitalar kabi mushtarak jihatlarni ham qamrab oladi. Tipologik mushtarakliklar izlash samaradorligi shunda ko‘rinadiki, qiyosiy

aspektda bir-biriga oyna qilib qo‘yilgan asar va obrazlarning avval ko‘rilmagan, ko‘zga tashlanmagan qirralari bo‘rtib namoyon bo‘lishi kuzatiladi.

Ma’naviy boyligimiz o‘zga xalqlar adabiyoti, madaniyati, san’ati bilan tanisha borganimiz sari yuksaladi. Bu borada esa, albatta, badiiy tarjimaning o‘rni beqiyos. O‘zbek kitobxonlari dunyo adabiyoti durdonalaridan ko‘plab namunalarni ona tilida o‘qimoqdalar. Bugungi kunda tarjimonlarimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biri o‘zbek adabiyotining yaxshi namunalarini jahon kitobxonlariga yetkazishdir.

Albatta, adabiy aloqa faqat adabiy-badiiy tarjima bilan belgilanmaydi. Jonli adabiy aloqa, bordi-keldi munosabatlar, xalqaro adabiy anjumanlar, ijodiy sanalarning nishonlanishi bilan bog‘liq tadbirlar adabiy aloqa tushunchasini to‘ldiradi. Agar bular yoniga adabiy ta’sirlarning ilmiy-tadqiqi ham qo‘shilsa, yanada yaxshi bo‘lar edi.

Mamlakatlarimiz o‘rtasida siyosiy va iqtisodiy aloqalar havas qilarlik darajada yuksalib borayotgan bir paytda O‘zbekiston va Turkiya adabiy hamkorligi, aloqalari ham yanada mustahkamlansa, har jihatdan maqbul ish bo‘lar edi. Qolaversa, bizni Turkiya madaniyati, jumladan, adabiyotining o‘tmishi va buguni bilan bog‘laydigan nuqtalar ko‘p.

Adabiyotlar:

1.Karimov N. “Alisher Navoiy va Ahmad Posho”. //”O’zbekiston adabiyoti va san’ati”, 2002 yil, 21-iyun.

2.İslâm Ansiklopedisi. Türkiye diyanet vakfi. İstanbul. 1989-y. 2 cilt.

3.Adxambek Alimbekov tarjimasi. Manba: A. Alimbekov «Turk adabiyoti tarixi» (XIII-XVIII asrlar) (ToshDShI nashriyoti. 2005) o’quv qo’llanma.

4.Molla Cami (Jomiy), Baharistan, çev. Nuri Gençosman, MEB, Ankara, 1945.

5.Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. Mukammal asarlar to’plami. 20 jildlik. 6-jild. T.: «Fan», 1990.

6.Osmanli araştirmalari XXVI. Alişir Nevai'nin osmanli şiirine ve kanuni sultan Süleyman'a tesiri ve sebepleri üzerine. Yusuf Çetindag. İstanbul – 2005

7.Alisher Navoiy. “Badoye ul-vasat” Mukammal asarlar to’plami. 20 jildlik. 5-jild. T.: «Fan», 1990.

8.Alisher Navoiy. “Navodir ush-shabob” Mukammal asarlar to’plami. 20 jildlik. 4-jild T.: «Fan», 1990.

9.Najmiddin Komilov. Adabiyot va uch buyuk zot. //«O‘zbekiston adabiyoti va san’ati»//2004 yil 6-son.

10. Alisher Navoiy.“ Xamsat ul-mutahayyirin” Mukammal asarlar to’plami. 20 jildlik. 15-jild. T.: «Fan», 1990-y.

11. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami. 20 jildlik. 3-jild. “G‘aroyib us-sig‘ar” . T.: «Fan», 1990.

12. Ayniy Sadriddin, “Qisqacha tarjimai holim”, Tanlangan asarlar. 8 jildlik, 1-jilt, “Badiiy adabiyot”, Toshkent–1960,